



UDK:159.9(316.6);

Zohid ALIMARDONOV,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, PhD

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti B.Muradov taqrizi asosida

KURSANTLARDA MULOQOT KOMPETENSIYALARINI SAMARALI SHAKLLANTIRISH OMILLARIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIR

Аннотация

Maqolada kursantlarida muloqot kompetensiyalarini samarali shakllantirish omillari, xususiyatlari, ilmiy nazariy manbalar asosida ochib berilgan va tahlil qilingan. Ayniqsa, kursant shaxsini kasbiy faoliyatga tayyorlashda muloqot kompetensiyasini shakllantirish ijtimoiy zaruriyat ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, ijtimoiy psixologik treningni kursantlar faoliyatiga tadbiiq etish orqali ularda muloqot kompetensiyasini shakllantirish muhim omil ekanligi asoslanilgan.

Kalit so'zlar: Kursant, kompetentlik, kompetensiya, muloqot, shaxslararo munosabatlar, harbiy xizmatchi shaxsi, kommunikatsiya, muloqot kompetensiyasi, shaxslararo muloqot, muloqot samaradorligi, ijtimoiy aloqalar, kommunikativ qobiliyat, kommunikativ tajriba.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОГО ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У КУРСАНТОВ

Аннотация

В статье раскрыты и проанализированы факторы и особенности эффективного формирования коммуникативной компетентности у курсантов на основе научно-теоретических источников. Особое внимание уделено тому, что формирование коммуникативной компетентности при подготовке личности курсанта к профессиональной деятельности является социальной необходимостью. Также обосновано, что применение социально-психологических тренингов в деятельности курсантов является важным фактором формирования у них коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: Курсант, профессиональная компетентность, коммуникативная компетенция, межличностная коммуникация, социально-психологические отношения, личность военного, эффективность коммуникации, социальные взаимодействия, коммуникативные навыки, опыт коммуникации.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL INFLUENCE ON THE FACTORS OF EFFECTIVE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCIES IN CADETS

Annotation

The article reveals and analyzes the factors and characteristics of the effective formation of communicative competence in cadets, based on scientific and theoretical sources. Special emphasis is placed on the fact that the development of communicative competence in preparing cadets' personalities for professional activity is a social necessity. It is also substantiated that the application of socio-psychological training in cadets' activities is an important factor in the formation of their communicative competence.

Key words: Cadet, professional competence, communicative competency, interpersonal communication, socio-psychological relations, military personality, effectiveness of communication, social interactions, communication skills, communicative practice.

Bugungi globallashuv davrida insonning kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyati nafaqat nazariy bilimlarga, balki samarali muloqot qila olish qobiliyatiga ham bevosita bog'liqdir. Xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida tahsil olayotgan kursantlar uchun muloqot kompetensiyasini shakllantirish kelajakdagi xizmat faoliyatida jamoatchilik bilan samarali hamkorlik qilish, nizoli vaziyatlarni hal etish va fuqarolarning ishonchini qozonishning muhim omilidir.

Hozirgi kunda shaxslararo muloqot jarayonidagi kompetentlik inson bilan bog'liq faoliyatlarining har qanday sohasida kuzatilishi tabiiy hisoblanadi. Ayniqsa, "inson-inson" tizimidagi kasblar doirasida faoliyat olib boradigan mutaxassisning yuqori kasbiy darajasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi. Natijada jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari kursantlarining kasbiy tayyorgarligini tashkil etishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash lozimligini ko'rsatadi. Bu esa, ayniqsa, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari ofitserlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Kursantlar kasbiy mahoratining eng muhim xususiyatlaridan biri bu turli xil sharoit va vaziyatlarda boshqa harbiy xizmatchilar bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyatiga ega bo'lishidir. Darhaqiqat, kommunikatsiya, muloqot kursantlar kasbiy faoliyatining asosidir. Tanlagan kasbning muvaffaqiyati ko'p jihatdan jamoat xavfsizligi universiteti kursantlarining kasbiy faoliyatga samarali moslashishini ta'minlaydigan kommunikativ, tashkilotchilik, refleksivlik, empatiya hamda ko'nikma va qobiliyatlariga bog'liq.

Muloqot kompetensiyasi — bu shaxsning o'z fikrini ravon, tushunarli, mantiqiy ifoda etish, suhbatdoshni tinglash, ijtimoiy vaziyatga moslashish va samarali hamkorlik qilish qobiliyatidir. Kursantlar uchun bu ko'nikmalar nafaqat ta'lim jarayonida, balki kelgusida xizmat faoliyatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, biz tomonimizdan ilgari surilgan muammo yuzasidan ilmiy manbalarni tahlil qilish harbiy xizmatchilarning qo'l ostidagi va o'zidan yuqori lavozimda

faoliyat olib boradigan qo'mondonlar bilan o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan ziddiyatli holatlarni yoritishga xizmat qiladi. Bu asosan harbiy jamoani maqsadga muvofiq va samarali boshqarishda yaqqol namoyon bo'ladi. Ta'kidlash joizki, qo'mondonning kommunikativ malakasi bo'linmadagi faoliyatning turli tomonlarini muvofiqlashtiradi va muvaffaqiyatli qo'llab-quvvatlashning zaruriy shartidir [1; 2; 3].

Kursantlarda muloqot kompetensiyasini samarali shakllantirish va rivojlantirish masalalari xorij olimlarining tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Unga ko'ra, har qanday holatda, axborotni uzatish va qabul qilish uchun muloqot jarayonida sheriklarini bir-birlari bilan o'zaro aloqasi hamda axborotning muloqot qatnashchilariga ta'siri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, G.M.Andreyeva, A.A.Bodalyev, A.A.Parigin, L.A.Petrovskaya, I.V.Siromyatnikov va boshqa mualliflarning ta'kidlashicha, muloqot samaradorligi va uning ko'zlangan maqsadlarga erishishi inson tomonidan muloqot jarayonini tashkil qila olish qobiliyatiga bog'liq. Kommunikativ qobiliyatning asosiy ko'rsatkichi esa uning kommunikativ kompetentligidir.

Psixologiya nazariyasi va amaliyoti doirasida muloqot kompetensiyasi fenomeni shaxslararo o'zaro munosabatlar sohasidagi bilim, ijtimoiy munosabat, ko'nikma va tajribalarni o'z ichiga olgan murakkab kompleks sifatida qaraladi [4]. Shuningdek, kommunikativ harakatlarni o'zini o'zi boshqarish vositalari tizimi sifatida [5]; o'z bilimlari va tajribasiga asoslangan muloqotga yo'naltirilganlik, shuningdek, muloqot vositalaridagi teranlik sifatida [6] ko'rsatiladi.

Shunday qilib, muloqot kompetensiyasi bir qator tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, kommunikatsiya jarayonini baholash, bashorat qilish va boshqarish; muvaffaqiyatli muloqot o'rnatish uchun zarur bo'lgan munosabatlarning rivojlanishini korreksiya qilish; o'zini, o'zga insonlarni, shuningdek, muloqot jarayonidagi sheriklari o'rtasida rivojlanayotgan munosabatlarni adekvat va to'liq idrok etish va baholash qobiliyati.

Kursantlaridagi muloqotning mazmuni va shakli ular hayotining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq jihatlariga ega.

Ma'lumki, harbiy mehnatning jamoaviy tabiati, xizmat munosabatlari harbiy xizmatchilar faoliyatlari umumiy harbiy nizomlar bilan qat'iy tartibga solinishiga qaramay, ularning bir-biri bilan munosabati nazarda tutadigan muvofiqlashtirilgan o'zaro hamkorlik talab qilinadi.

Turli harbiy tuzilmalarda olib borilgan ba'zi tadqiqotlarning natijalari hamda ko'plab xizmat mojarolar bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatadiki, ularning yuzaga kelishi ba'zi harbiy xizmatchilarda kirisha olish ko'nikmasini mavjud emasligi [1]. Shuning uchun bo'limni boshqarish samaradorligini oshirish uchun muloqot jarayonining psixologik qonuniyatlari va mexanizmlarini bilish hamda bu bilimlarni egallash va amalda qo'llash uchun barcha mavjud vositalardan foydalanish, nafaqat shaxsiy tajribaga tayanish, balki o'zini o'zi boshqarish qobiliyatiga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, kursantining shaxsiy xususiyatlarini uning fikrlash tezligi va aniqligi, empatiya qobiliyati, sezgi, diqqatlilik, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ salohiyat va boshqalarni hisobga olish zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, har qanday profildagi kursantning kasbiy tayyorgarligi doirasida uning o'z-o'zidan shakllanishi mumkin bo'lmagan kasbiy kommunikativ kompetentligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bois, uning maqsadli shakllanishi uchun maxsus mehnat va psixologik shart-sharoitlar kerak.

Muloqot kompetensiyasi tajribasini o'zlashtirish nafaqat shaxslararo o'zaro munosabatlarda bevosita ishtirok etish asosida sodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan olganda,

shaxslararo muloqot muammolari va ularni hal qilish usullari haqida ma'lumot olishning ko'plab metodlari mavjud. Muloqot kompetensiyasi "spontan" (tabiiy) rivojlanish manbalariga asoslanib, ko'plab tadqiqotlar [3; 4; 5; 6] quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'zga insonlar bilan muloqotda bevosita ishtirok etish, shaxslararo o'zaro munosabatlar muammolari va ularni hal qilish yo'llari to'g'risida adabiyotlar va ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlar. Ammo bu yo'l bilan kommunikativ o'zaro ta'sirlarni buzadigan noadekvat kognitiv sxemalar shakllanishi mumkin.

Kursantlarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish uchun oily harbiy o'quv yurtlarida maxsus tashkil etilgan muloqot jarayoniga asoslangan mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor berilishi lozim. (ham kursantlar, ham o'qituvchilar uchun). Shuningdek, maxsus va ixtisoslik fanlari doirasida - muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini joriy etish orqali hal qilish mumkin.

Bunday mashg'ulotlar kursantlarning ta'lim jarayoniga qiziqishini samarali oshiradigan, vaziyatni his qilish va o'z xatti-harakatlarining mumkin bo'lgan strategiyalarini aniqlashga imkon beradigan, shuningdek, muloqotni shakllantirishga hissa qo'shadigan faol o'qitish usullariga asoslanishi lozim. Faol o'qitish usullari kursantlarning bilimlarini mustaqil o'zlashtirishga, kasbiy muammolarni ijodiy va malakali hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan hamda ularning faol bilish faoliyati jarayonida usul va uslublar tizimidan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bunday usullar kursantlarning bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil egallashga, ularda kasbiy tajribani shakllantirishga xizmat qiladi. An'anaviy texnologiyalar bilan taqqoslaganda, faol usullar o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kursantlarni tayyorlash samaradorligi va sifatini oshirishi mumkin.

Faol o'qitish usullarida uchta asosiy metodik blokni ajratib ko'rsatish mumkin: a) munozara usullari; b) o'yin usullari; v) ijtimoiy-psixologik treninglar. Barcha faol usullar shaxsga ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotchilar ta'kidlaganidek [6], kursantning muloqot kompetensiyasini rivojlantirish va takomillashtirishga hissa qo'shadi. Shuningdek, bu sohada eng samarali vosita ijtimoiy-psixologik trening (IPT), chunki u boshqa vositalardan ko'ra, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga ko'proq e'tibor beradi. Ijtimoiy-psixologik treningda shaxslararo muloqotni shakllantirishda yuqori natijalarga erishish, maxsus ta'sir qilish holatlarini yaratishdan iborat bo'lgan texnikalar yordamida amalga oshiriladi. Treningda o'qitishning interfaol va ijodiy tabiati insonning o'z hayotiy tajribasidan refleksivlik asosida (va o'z-o'zidan emas) foydalanish taklif qilinganda namoyon bo'ladi. Bu trening ishtirokchisiga o'z harakatlarini qayd etish va tahlil qilish hamda olingan bilimlarni mavjud vaziyatga adekvat tarzda qo'llashga imkoniyat yaratadi.

Kommunikativ shaxslararo o'zaro ta'sirni analitik kuzatish, trening jarayonidagi faoliyatning bir qismi bo'lib, o'z kommunikativ xatti-harakatlarini boshqarish vositalarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, o'zaro munosabatlarni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan qoidalar tizimini ishlab chiqishga imkon beradi.

Treningning yana bir elementi va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish jarayonidagi muhim nuqta - bu turli vaziyatlarda o'z xatti-harakatlarini aqliy jihatdan takrorlashdir. O'z harakatlaringizni "ongingizda" rejalashtirish oddiy kommunikativ harakatning ajralmas qismidir.

O'quv jarayonini yuqori saviyada tashkil etish KEYS, muammoli va interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish uchun ma'lum imkoniyatlarni taqdim etadi. Jumladan, rolli va ishbilarmonlik o'yinlari, vaziyatli va muammoli vazifalar,

rollar va yashirin rollar bo'yicha munozaralar, "aqliy hujum" va "ishbilarmonlar usuli", "davra stoli", intellektual o'yinlar va ijtimoiy-psixologik treninglar va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash kafedrasidan 2-bosqich kursantlariga o'tiladigan "Harbiy pedagogika va psixologiya" fanidan 4/2 mavzu: "Kursant ta'lim-tarbiya jarayonining yetakchisi" nomli munozara mashg'ulotida kursantlar materialni to'liq va aniq tushunib olganliklarini tekshirish maqsadida noan'anaviy dars tashkil qilindi. Natijada jamoat xavfsizligi universiteti kursantlariga an'anaviy va faol o'qitish usullari o'rtasidagi farqlarni aniqroq tushunishga qaratilgan darsning birinchi qismi an'anaviy sxema bo'yicha o'tkazildi: ekspress-testlar ko'rinishida bilimlarni yozma joriy nazorat qilish, kursantlarning oldindan tayyorlangan mavzular bo'yicha og'zaki chiqishlari, eshitilgan ma'ruzalar bo'yicha muhokamalar. Darsning ikkinchi qismi noan'anaviy - dars mavzusi bo'yicha viktorina shaklida intellektual o'yin tarzida o'tkazildi.

Viktorinaning tuzilishi quyidagicha: 1) hakamlar hay'atini ushbu fan bo'yicha eng muvaffaqiyatli va malakali kursantlarni tanlash; 2) kursantlarni uch guruhga taqsimlash; 3) opponentlarga guruhlarda kuzatuvchilarni tayinlash; 4) barcha ishtirokchilarni baholash tizimi bilan tanishtirish va xulq-atvor qoidalarini birgalikda belgilash; 5) bir muddat kichik guruhlarda individual topshiriqlarni bajarish (nazariy qism bo'yicha muammoli savollarga javoblar; muammoli, mantiqiy va psixologik muammolarni hal qilish, dars mavzusi bo'yicha krossvordlarni yechish, sxemalar va tasniflarni tiklash va boshqalar); 6) natijalarni hisoblash, g'olib jamoani va jamoalarning eng yaxshi ishtirokchilarini aniqlash.

Natijalarni muhokama qilishda kursantlar musobaqa lahzasida darsga qiziqishni sezilarli darajada oshirish, yaxshiroq yod olishga, materialni chuqur tushunishga va

keyingi darslarga tayyorgarlik ko'rishga nisbatan motivatsiyasini o'zgartirishga yordam berishini ta'kidladi. Shu sababli, faol o'qitish usullaridan foydalangan holda amaliy va seminarlar o'tkazish bir vaqtning o'zida nafaqat pedagogik, balki psixologik qo'yilgan vazifalarni ham (harbiy jamoani yig'ish, rahbarlar va liderlarni aniqlash, ijodiy qobiliyatlarni ochib berish) chegaralarini kengaytirishga imkon beradi, deb aytishimiz mumkin. Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlarini yangi jamoada ishlash qobiliyati, ishonchli xulq-atvor ko'nikmalarini, muloqot va tashkilotchilik qobiliyatlari rivojlantirish va boshqalar.

Shunday qilib, jamoat xavfsizligi universitetida o'qitish jarayonida faol usullaridan foydalanish kursantlarning o'quv mashg'ulotlarida ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishiga yordam beradi. Shuningdek, ularning munosabatlarini optimallashtirish va harbiy tayyorgarlik va kelajakdagi kasbiy faoliyatini yaxshiroq muvofiqlashtirishga ko'mak beradi. Kelajakda bu ko'nikmalar jamoat xavfsizligi universiteti kursantlarning asosiy kasbiy kompetentligini shakllantirish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni keltirib o'tish joiz:

- kursantlarning muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga yordam berish harbiy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir;

- muloqot kompetensiyalarining yetarlicha shakllanmaganligi, kasbiy harbiy faoliyatning o'ziga xos shartlari va boshqa bir qator omillar harbiy xizmatchilarda kommunikativ deformatsiyalar va charchoqlarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin, bu esa turli xil og'ishlarga bo'lgan xavfni oshiradi;

- kursantlarning muloqot kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish ularning kasbiy rivojlanishiga va ijodiy o'zini-o'zi anglashiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Devyatko V.V. Sotsialno-psixologicheskiy trening kak sredstvo povыsheniya kompetentnosti molodyx ofitserov v obrasheniі s podchinyonnyimi. Dissertatsiya ... kandidata psixologicheskix nauk. Moskva, 1990.
2. Сыromyatnikov I.V. Formirovanie kommunikativnoy kompetentnosti u budushix ofitserov v protsesse professionalnoy podgotovki v vuze. Innovatsi v obrazovani. 2003; 3.
3. Severin M.M. Formirovanie kommunikativnoy kompetentnosti u budushix ofitserov-vospitateley Available at: <http://www.rae.ru/forum/2012/290/2079>
4. Petrovskaya L.A. Obsheniya - kompetentnost - trening. Moskva, 2007.
5. Jukov Y.M. Diagnostika i razvitiya kompetentnosti v obsheni. Moskva, 1991.
6. Emelyanov Y.N. Aktivnoya sotsialno-psixologicheskoe obucheniya. Leningrad, 1985.
7. Shpext M.V. Osobennosti transformatsi kommunikativnix xarakteristik v protsesse podgotovki spetsialistov v voyennom vuze. Razvitie cheloveka v sovremennom mire. Novosibirsk. 2014; Chast 2.
8. Emelin A.I. Formirovanie kommunikativnoy kompetentnosti u budushix ofitserov-finsistov sredstvami sotsialno-psixologicheskogo treninga. Dissertatsiya ... kandidata psixologicheskix nauk. Yaroslav, 1999.
9. Matyash N.V. Metodi aktivnogo sotsialno-psixologicheskogo obucheniya. Moskva, 2007.